

**BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARNING
SAMARASI**

Matqurbanova Gulnoza Odilbekovna
*Yangiariq tumani Gullanbog' qishlog'idagi
23-son mактабning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annatotsiya: *Ushbu maqolada o'qituvchining samarali faoliyat ko`rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lif texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo`naltirilgan.*

Kalit so'z: ta'lif: *interfaol, suhbat, ijtimoiy, pedagogik, texnologiya.*

Interfaol zamonaviy ta'lif texnologiyasi – ta'lif maqsadiga erishish jarayonining umumiylar mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lif jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lif jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Interfaol ta'lif - ta'lif samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lif turi va o'qitish shakli sanaladi.

Mohiyatiga ko`ra interfaollik o'quvchilarning bilim, ko`nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida qilgan ma'ruzalarida ta'lif va tarbiya tizimi masalasiga keng e'tiborni qaratib o'tgan edi.

Fe'l - mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'lidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog'liq holda hal etiladi.

Fe'lning harakat bildirishi yuzasidan o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni o'quvchilarning o'zlarini bajarayotgan ish-harakatni aytishni so'raydi, suhbat o'tkazadi. Suhbatda "O'qituvchi nima qildi? O'quvchilar nima qildilar? Hozir o'qituvchi nima qilyapti? O'quvchilar nima qilyaptilar? Endi o'quvchilar nima qiladilar? O'qituvchi nima qiladi?" kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fe'llarni so'rog'i bilan yozib bo-radilar. Masalan, nima qildi? - so'zлади, тушунтириди; nima qildilar? - тингладилар, yozdilar; nima qilyapti? - тушунтиралыпти, со'райапти, тинглайапти; nima qilyaptilar? - javob

berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? - tekshiradi, ko'radi; nima qiladilar? ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.

Suhbatdagi yoki o'quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo'lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlar fe'l deyiladi. Fe'l gapda kesim vazifasida keladi.

O'quvchilarning nutqi kitobiy va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar bilan ham boyitib boriladi. Biroq o'quvchilarning nutqini boyitishda ko'proq e'tibor berish kerak bo'lgan, tushuntirish zarur bo'lgan masala aniqlab olinishi kerak. So'zlarni esda qoldirishda o'zakdosh so'zlarni topishga ortiqcha kirishib ketilsa, bu holat o'quvchilarning so'zlar mohiyatini to'liq va yaxlit holda idrok qilishlariga salbiy ta'sir qiladi. Uslubda nutq ustida ishlashda eng qulay omillardan biri «uslubiy mashqlar»dir. Quyida uslubiy mashqlarga misol keltiramiz.

1. "O'g`lini hamisha sevinch bilan kutuvchi Hilol buvi sevinganidan darhol yostiqdan boshini uzdi". 2. "Umarali va onasi uzoq dardlashib o'tirdilar..." 3. "Umarali singlisiga ham mehr, ham qiziqish hissi bilan tikildi. Singlisining ingichka, nozik qoshlari ostidagi shahlo ko`zlarida mung ko`rib, ich-ichidan dard chekdi".

4. "Suhbat qizg`in xususan, Umarali zo'r ehtiros bilan gapirar edi. Keyin o`rnidan qo`zg`aldi". O'quvchilar o'qituvchining taklifi bilan yuqorda ko`rsatilgan fe'l va fe'l shakllarining o`rniga yangi so'zlar topib qo'yadilar va yozuvchi Oybek nima uchun "boshini ko'tardi" deyish o`rniga "boshini uzdi", "gapirib o'tirdilar" deyish o`rniga "dardlashib o'tirdililar", "ich-ichidan qayg`urdilar" deyish o`rniga "ich-ichidan dard chekdi" "o`rnidan turdi" deyish o`rniga "o`rnidan qo`zg`aldi" va "ko`rdi" deyish o`rniga "tikildi" fe'llari va fe'l shakllarini ishlatganining sababini o`zlari hal qiladilar.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositatlari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha oladi.

SWOT-TAHLIL METODI - metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-(strength)-kuchli tomonlari

W-(weakness)-zaif, kuchsiz tomonlari

O-(opportunity)-imkoniyatlari

T-(threat)-to'siqlar va tahdidlar

Inson xayotida o'simliklarning axamiyati

S	O'simliklarni afzallik tomonlari	Insonlar uchun oziq-ovqat, kiyim –kechak, uyro`zg`or buyumlari bilan ta'minlaydi
W	O'simliklarni kamchilik tomonlari	Insonlar singari nafas olishi, parazit va zaharli o'simliklar, begona o'tlar
O	O'simliklardan foydalanishning imkoniyatlari	O'simliklardan unumli foydalanilganda yuqori hosildorlikka erishish imkoniyati ortadi
T	O'simliklardan foydalanishda to'siqlar va tahdidlar	Mevali daraxtlar va boshqa o'rmon daraxtlarini kesilishi, unumdon tuproqlarning kamayishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovations texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste'dod jamg`armasi, 2008.
3. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2011.
4. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1995.
5. Umarova M. O'qish kitobi: 3- sınıf uchun darslik. 3-nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 216 b.